O'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish uchun professional rivojlanish dasturlari	624
Lapasova Zebiniso Xidirovna	
Yuqori malakali bokschilarning tezkor kuch sifatini takomillashtirish	629
Qon'irbayev Dastan	

YUQORI MALAKALI BOKSCHILARNING TEZKOR KUCH SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH

Qon'irbayev Dastan

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida sportning boks turi bilan shug'ullanayotgan yuqori malakali sportchilarning tezkor kuch jismoniy sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirishga qaratilgan umumi va maxsus vositalar o'rganildi hamda ushbu sifat ko'rsatkichlarining samaradorligini oshirish maqsadida mashg'ulot jarayonlariga tadbiq etildi.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifat, kuch, tezlik, tezkor kuch, mashg'ulot jarayoni.

Abstract: This research examines general and specific tools aimed at developing the quick-strength physical quality indicators of highly qualified athletes engaged in boxing. These tools were implemented into the training process to enhance the effectiveness of the targeted physical qualities.

Key words: physical fitness, physical quality, strength, speed, speed-strength, training process.

Аннотация: В настоящем исследовании изучены общие и специальные средства, направленные на развитие показателей физического качества "быстрая сила" у высококвалифицированных спортсменов, занимающихся боксом, а также внедрение данных средств в тренировочный процесс с целью повышения эффективности указанных показателей.

Ключевые слова: физическая подготовка, физическое качество, сила, быстрота, быстрая сила, тренировочный процесс.

KIRISH

O'zbekiston sportchilari xalqaro maydonlarda, xususan, Olimpiya o'yinlari va jahon championatlarida yuqori natijalarga erishib, mamlakatning sport salohiyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Biroq bu muvaffaqiyatlarni izchil mustahkamlash, shuningdek, sportchilarni tayyorlash samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar va zamonaviy usullarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda boks sport turiga bo'lgan e'tibor yuqori bo'lib, yurtboshimiz tomonidan yaratilayotgan keng imkoniyatlar ushbu sport turining naqadar zarur ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi PQ-5099-son¹ "Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Sportchilarni tayyorlash jarayoni murakkab, ko'p bosqichli va uzuksiz rivojlanishni talab etuvchi tizim faoliyat hisoblanadi. Ushbu jarayonni takomillashtirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- O'quv mashg'ulot jarayonlarining optimallashtirilgan tizimi.** Sportchilarning individual psixofiziologik va biomexanik xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, adaptiv trening usullaridan foydalanish orqali jismoniy yuklamalarni optimal darajada boshqarish va mashg'ulotlarning intensivligi hamda davomiyligini muvozanatlash muhimdir.
- Monitoring va tahlilning zamonaviy vositalari.** O'quv-mashg'ulot jarayonining sportchilarga ta'sirini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi texnologiyalarni qo'llash lozim. Jumladan, biometriya, yurak faoliyatining kardiologik ko'rsatkichlari, laktat darajasini aniqlash, mushak faolligi va nerv tizimining barqarorligini baholovchi yuqori aniqlikdagi o'lchov uskunalarini hamda dasturiy ta'minotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir^[2].

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.04.2021 yildagi PQ-5099-son <https://lex.uz/docs/-5401223>



3. **Ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik yondashuvlari.** Sportchilarning texnik, taktik va jismoniy xususiyatlariga asoslangan individual tayyorgarlik strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Xususan, boks sportida zarba kuchini oshirish, reaksiya tezligini shakllantirish va chidamlilikni mustahkamlashga qaratilgan maxsus trening modellarini ishlab chiqish muhimdir [3].
4. **Holat monitoringi va dinamik nazorat tizimi.** Sportchilarning funksional holatini ob'ektiv baholash uchun ilmiy asoslangan diagnostika va monitoring usullarini joriy etish talab etiladi. Yurak-qon tomir tizimi faoliyati, mushaklarning tiklanish ko'satkichlari, immunitet darajasi va psixologik barqarorlikni kuzatish orqali individual reabilitatsiya va yuklama strategiyalarini ishlab chiqish zarur [4].
5. **Innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish.** Sport tayyorgarligi tizimida zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, virtual simulyatsiya va yuqori aniqlikdagi o'Ichov tizimlaridan foydalanish sportchilarning natijalarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, murabbiylar va ilmiy xodimlar uchun malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish ham dolzarb hisoblanadi [5].

Yuqorida yondashuvlarni amaliyatga tatbiq etish orqali O'zbekiston sportchilari xalqaro sport maydonlarida yanada yuqori natjalarga erishishi va mamlakatimiz sport sohasida yetakchi davlatlar qatoriga kirishi ta'minlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bokschilarning jismoniy tayyorgarligi, xususan tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish sohasida so'nggi yillarda ko'plab ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borilmoxda. R.D. Xalmuxamedov (2008) tomonidan chop etilgan "Boks" nomli o'quv qo'llanmada bokschilarning umumiyligi va maxsus jismoniy tayyorgarligi, musobaqa oldi va musobaqadan keyingi bosqichlarda qo'llaniladigan mashg'ulot uslublari atroficha yoritilgan. Unda kuch va tezlik sifatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi plyometrik mashqlar, portlovchi kuchni rivojlantirishga yo'naltirilgan vositalar tahlil etilgan.

Xuddi shuningdek, R.D. Xalmuxamedov, V.N. Shin, F.K. Turdiev, S.S. Tajibaev (2016) tomonidan yaratilgan "Boks nazariyasi va uslubiyati" darsligida bokschilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi, kuch va tezkorlikni birgalikda rivojlantirish metodikasi nazariy asoslar bilan yoritilgan bo'lib, tezkor-kuch sifatlari murakkab koordinatsiyali harakatlar orqali rivojlanishi qayd etilgan.

M.M. Ibragimov (2023) o'z maqolasida bokschilarni musobaqalarga tayyorlashda umumiyligi va maxsus tayyorgarlik jarayonida qo'llaniladigan intensiv mashg'ulotlarning fiziologik jihatlari, jumladan yurak-qon tomir tizimi, asab-mushak faoliyati va energetik mehanizmlarga ta'siri xususida fikr bildirgan. U tezkor-kuchni rivojlanish uchun mos individual yuklama va restitusiyani hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi.

S.S. Tajibaev va hammulliflar (2017) tomonidan ishlab chiqilgan sport to'garak mashg'ulotlari uchun metodik tavsiyalarda bokschilarning yoshga xos va malaka darajasiga mos ravishda tezkorlik va kuch sifatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish yondashuvlari yoritilgan. Ushbu tavsiyalarda turli modifikatsiyadagi kuch mashqlari, plyometrik harakatlar va koordinatsion o'yinlarning mashg'ulotdagi o'rni asoslangan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar yuqori malakali bokschilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda kombinatsiyalangan yondashuvlar, jumladan plyometrik, siklik-asiklik mashqlar, og'irlilik bilan bajariladigan harakatlar, reflektor reaksiyalar va eksploziv kuch mashqlarining yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur adabiyotlarda tezkor-kuchni rivojlanishda har bir sportchining fiziologik xususiyatlarini hisobga olish, yuklama va dam olish rejimini to'g'ri tashkil etish muhimligi ta'kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – yuqori malakali bokschilarning tezkor-kuch sifatini takomillashtiruvchi mashqlar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyatga joriy etishdan iborat. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish jarayonida bir qator ilmiy-vazifaviy yo'nalishlar belgilandi. Jumladan, eng avvalo, yuqori malakali bokschilarning tezkor-kuch sifati ko'rsatkichlarini aniqlash hamda ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlar majmuasini ishlab chiqish zarur deb topildi. Tadqiqot metodlari sifatida esa ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, bevosita pedagogik kuzatuvalr olib borish, maxsus pedagogik testlash usullaridan foydalanish va olingan natjalarni matematik-statistik tahlil orqali umumlashtirish usullari qo'llanildi. Ushbu yondashuvlar orqaligina ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan foydali va samarali mashg'ulot tizimini shakllantirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori malakali bokschilarining musobaqa faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlarida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu sifatlarni shakllantirishga qaratilgan tayyorgarlik mashqlari bokschilarining musobaqa sharoitlaridagi texnik-taktik va funksional ko'rsatkichlariga mos keluvchi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur jihatlar tadqiqotning asosiy nazari va amalii yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida mushak kuchini rivojlantirishning asosiy usullari, jumladan, takroriy, seriyali va oraliqli mashqlarning mushak faoliyatidagi moslashuv jarayonlariga ta'siri chuqur tahlil qilindi. Bu usullarning ilmiy jihatdan asoslangan holda qo'llanilishi nafaqat umumiyl jismoniy tayyorgarlikni oshiradi, balki bokschilarining musobaqa jarayonida ko'rsatayotgan yuqori natijalari bilan ham bevosita bog'liqdir.

Sport yakkakurashi sifatida boks murakkab koordinatsiyaga ega, yuqori dinamikaga ega bo'lgan siklik bo'limagan sport turlari qatoriga kiradi. Bunda har bir sportchidan individual texnik-taktik yondashuv, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati hamda musobaqa davomida yuqori darajadagi chidamlilik talab etiladi. Shu sababli, yuqori malakali bokschilarining tayyorgarlik tizimida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir.

Tadqiqot davomida bokschilarining jismoniy tayyorgarlik bosqichlari, maxsus yuklamalarning davomiyligi va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan metodikalar o'rganib chiqildi. Xususan, tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda individual yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlandi. Bu esa har bir sportchining fiziologik va biomexanik xususiyatlarni hisobga oлган holda mashg'ulot jarayonini tashkil qilish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot doirasida boks texnikasida eng ko'p qo'llaniladigan texnik harakatlar va usullar tizimlashtirildi. Ushbu harakatlarning strukturalari va ularni bajarishning texnik jihatlari chuqur o'rganildi. Natijada, maxsus mashqlar tizimi ishlab chiqildi. Bu esa bokschilarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishish imkonini yaratadi.

Yuqori malakali bokschilarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uchun aylanma mashg'ulot vositalari dan foydalanildi. Ushbu mashqlarni shunday saralash zarurki, ular yordamida musobaqa jarayonida bokschilar barcha imkoniyatlarini to'liq namoyon qila olsin. Bu mashqlar yuqori malakali sportchilarda tezlik va tezkor-kuch tayyorgarligining samarali rivojlanishini ta'minlovchi mexanizmlarga ta'sir ko'rsatishi lozim. Shu bois, boks sport turida alohida ahamiyatga ega bo'lgan mashqlar tanlab olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur vositalar aylanma mashg'ulotda qo'llaniladigan og'irliklar bilan bajariladigan mashqlarga misol bo'la oladi. Og'irliklar sportchining tana vazniga tenglashtirilgan holatda bo'lib, mashg'ulotlar ushbu vaznda 6 oy davomida olib boriladi (1-jadval).

1-jadval: Yuqori malakali bokchilarining tezkor-kuch sifatini takomillashtiruvchi aylanma mashg'ulot mashqlari

T/r	Mashq nomi	Davomiyligi	Shiddati (yurak urish tezligi/min)
1	Arqonga tirmashib chiqish	2 daqiqa	140-160
2	70–80 sm balandlikdagi tumbaga sakrash	2 daqiqa	160-170
3	O'z vaznining yarmi og'irligidagi shtangani yotgan holda ko'tarish	Har bir takror 10 marta (3 marta)	130-140
4	Polga tayangan holda qarsak bilan qo'llarni bukib-yozish	Har bir takror 20 marta (3 marta)	140-170
5	Maxsus rezina yordamida chap va o'ng qo'llarda to'g'ridan zarba berish	100 marta	130-140
6	Yotgan holda gavdani ko'tarish (press)	2 daqiqa	120-140
7	Maxsus to'ldirma to'plarni juftlikda uloqtirish	2 daqiqa	120-140
8	Maxsus toshlar yordamida soya bilan jang	2 daqiqa	130-160
9	Turgan holatda shtanga grifini qo'ldan uzmasdan oldinga uloqtirish	Har bir takror 10 marta (4 marta)	140-170
10	Pastki startdan 3×10 mokisimon yugurish	3 marta	170-180

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan yuqori malakali bokschilarining tezkor-kuch sifatlarini takomillashtiruvchi aylanma mashg'ulot mashqlarida dastlab arqonga tirmashib chiqish mashqi qo'llaniladi. Ushbu mashqning davomiyligi 2 daqiqa bo'lib, shiddat zonasasi 140–160 zarb oralig'iда bo'lishi lozim. Mazkur mashq yuqori qism mushaklari (deltoid, biseps, triseps) va tananing asosiy stabilizator mushaklarini rivojlantiradi. Mashq izometrik



kuchlanish orqali mushak to'qimalarini mustahkamlaydi hamda qondagi kislorod tashilishiga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Bu esa yurak-qon tomir tizimining funksional moslashuvini ta'minlaydi.

Ikkinci mashq sifatida, balandligi 70–80 sm bo'lgan tumbaga sakrab chiqish va tushish mashqi tanlangan. Bu mashqda shiddat zonası 160–170 zarbni tashkil etadi. Sakrash mashqlari, odatda, kuch sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, plyometrik mashqlar turkumiga kiradi. Ular oyoq mushaklarining maksimal kuchini rivojlantiradi. Sakrash jarayonida, asosan, kvadrieps, hamstrings va yadro mushaklari faollahashi. Ushbu mashq markaziy asab tizimining portlovchi kuchga moslashuvini kuchaytiradi hamda umumiyl sport qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi mashq – o'z vaznining yarmi og'irligidagi shtangani yotgan holda ko'tarish mashqi bo'lib, u 10 martadan 3 takroriy usulda bajariladi. Mashq shiddat zonası 130–140 zarbni tashkil etadi. Bu ko'p bo'g'inli kuch mashqi bo'lib, yuqori tana mushaklarining ko'pchiligi – jumladan, ko'krak, deltoid va triceps mushaklari – bir vaqtida faoliyat yuritadi. Bu mashq chidamlilik va kuchni birgalikda rivojlantiradi (1-jadvalga qarang).

Yuqori malakali bokschilarining tezkor-kuch sifatlariga ta'sir ko'rsatuvchi mashqlardan yana biri – polga tayangan holda qarsak chalish bilan qo'llarni bukib-yozish mashqidir. Mazkur mashq 20 martadan 3 takroriylikda bajariladi, dam olish vaqtida esa 45 soniyani tashkil etadi. Ushbu mashqda shiddat zonası 140–170 zarb bo'lib, bu plyometrik mashqning yana bir turi sifatida portlovchi kuch va reflekslarni rivojlantiradi. Dinamik mushak qisqarishlari orqali yuqori tananing tezkorligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Keyingi mashq – maxsus rezina yordamida chap va o'ng qo'llarda to'g'ridan zorbalar berishdan iborat. Mazkur mashq har bir qo'l uchun 100 martadan bajariladi. Shiddat zonası 130–140 zarbni tashkil etadi. Rezina tortishish kuchi yordamida mashq moslashuvchanlikni hamda yuqori ekstremitalarning tezkorligini oshiradi. Bu jarayonda, asosan, deltoid, biceps va pektoralis mushaklari faollahashi. Mashq zarba kuchi, tezligi va aniqligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Keyingi mashq – yotgan holda gavdani ko'tarish, ya'ni "press" mashqi bo'lib, u dinamik abdominal mashqlar turkumiga kiradi. Ushbu mashq asosan rektus abdominis va oblik mushaklarini rivojlantiradi, natijada tananing asosiy kuchi oshadi. Bunday mashqlar gavdani barqarorlashtiradi va orqa muammolarining oldini olishga xizmat qiladi. Mashqning davomiyligi 2 daqqa, shiddat zonası esa 120–140 zarbni tashkil etadi (1-rasmga qarang).

Maxsus to'ldirma to'plarni juftlikda bir-biriga uloqtirish mashqi koordinatsiya, kuch va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. To'plarning og'irligi mushaklarni izotonik rejimda ishlashga majbur qiladi, bu esa dinamik kuchni shakkantirib, reflekslarning tezkorligini oshiradi.

Yuqori malakali bokschilarining maxsus toshlar yordamida soya bilan jang olib borishlari markaziy asab tizimining moslashuvchanligini yaxshilaydi va reflekslarni kuchaytiradi. Bu mashqda, asosan, yadro mushaklari va yuqori ekstremitalar faollahashi. Tezkorlik, aniqlik va kuchni oshirishga xizmat qiladi. Mashqning davomiyligi 2 daqqa, shiddati esa 130–160 zarb oralig'ida bo'ladi.

Turgan holatda shtanga grifini oldinga uloqtirish mashqi sportchilarining quvvatini oshirish uchun o'ta samarali bo'lib, bilak, yadro va deltoid mushaklarini bir vaqtida faollashtiradi. Harakatning ekssentrik va konsentrik fazalari orqali bu mashq dinamik kuchni samarali rivojlantiradi. Mashq 10 martadan 4 takroriylikda bajariladi va shiddat zonası 140–170 zarbga teng bo'ladi (1-rasmga qarang).

Malakali sportchilarining tezkorlik qobiliyatlarini yanada takomillashtirish maqsadida pastki startdan 3×10 mokisimon yugurish mashqi joriy etildi. Bu plyometrik mashq chaqqonlik, muvofiglashtirish va portlovchi kuchni rivojlantiradi. Pastki start holatidagi harakat oyoq mushaklarini maksimal darajada ishga soladi va sportchining tezkor reaksiyasi hamda harakat tezligini oshiradi. Mashq 3 takroriylikda bajariladi va shiddat zonası 170–180 zarbni tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jadvalda keltirilgan mashqlar sportchilarda umumiyl chidamlilik, kuch, tezlik va koordinatsiyani rivojlantirishga qaratilgan. Har bir mashqning davomiyligi va intensivligi jismoniy yuklanishni optimal boshqarishga yordam beradi. Bu mashg'ulotlar turli sport turlari uchun mos va samarali hisoblanadi.

Tahlil qilingan mashg'ulotlar dasturi yuqori malakali bokschilar orasida tezkor-kuch sifatini takomillashtirishga, shuningdek, sportchilarining jismoniy tayyorgarligini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Dastur zamonaviy sport mashg'ulotlarining nazariy tamoyillariga mos keladi va nafaqat sportchining maxsus jismoniy tayyorgarligini, balki uning umumiyl funksional holatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Biomekanik samaradorlik. Mashqlar biomekanik jihatdan mushaklar-ning tabiiy harakat traektoriyalariga mos ravishda tanlangan. Masalan, arqonga tirmashib chiqish va tumbaga sakrash kabi plyometrik usullar portlovchi kuchni samarali rivojlantiradi. Bunday harakatlar yadro mushaklarining ishtirokini taqozo etib, tananing stabilizatsiya qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Markaziy asab tizimi va mushak-moslashuvchanlik. Mashqlar davomida yuqori intensivlikka ega bo'lgan siklik va asiklik harakatlar, masalan, shtanga ko'tarish va rezina yordamida zarba berish, markaziy asab tizimini

qo'shimcha yuklanishlarga moslashishga majbur qiladi. Natijada, mushak tolalarining turli qisqarish turlari – izometrik, konsentrik va eksentrik qisqarishlar – faollashadi. Bu esa kuch va tezlikning bir vaqtning o'zida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Energiya almashinuvi va chidamlilik. Jismoniy mashg'ulotlarning davomiyligi va intensivligi yurak-qon tomir hamda nafas olish tizimlariga muvofiglashtirilgan ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "press" mashqlari va soya bilan jang jarayonida, asosan, aerob va anaerob energetik tizimlar birgalikda faoliyat yuritadi. Bu esa sportchining umumiy chidamliligini oshirib, uzoq muddatli jismoniy yuklanishlarga bardoshliligini yaxshilaydi.

Koordinatsiya va muvozanat. Maxsus to'dirma to'plar bilan juftlikda ishslash yoki shtanga grifini oldinga uloqtirish kabi mashqlar jismoniy harakatlarning aniqligi va tezkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu turdagи mashqlar bir vaqtning o'zida bir nechta mushak guruhlarining muvofiglashtirilgan faoliyatini talab qilib, tananing umumiy barqarorlikni saqlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Plyometrik va refleks mashg'ulotlari. Plyometrik va refleksga asoslangan mashqlar (masalan, qarsak bilan qo'l bukib-yozish yoki pastki startdan yugurish) harakat tezligi va kuchli reflekslarni rivojlantirishda yuqori saramaga ega. Ushbu jarayonlar yuqori intensivlikdagi ishlar davomida asab-mushak tizimi orqali tezkor javob berish qobiliyatini oshiradi. Bu esa sport faoliyatining eksploziv xarakterli elementlariga tayyorgarlik ko'rishda muhim rol o'ynaydi.

Sog'lomlik va reabilitatsiya tamoyillari. Mashqlar turi va mazmuni tananing turli mushak guruhlarini izchil rivojlantiradi hamda bir tomonlama zo'riqishdan saqlaydi. Bu esa sog'lomlikni saqlash va jarohatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yotgan holatda bajariladigan "press" mashqlari va arqonga tirmashish kabi mashqlar orqa va bel mushaklarini mustahkamlash orqali reabilitatsiya jarayonlariga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur mashg'ulotlar dasturi tizimli yondashuv asosida tuzilgan bo'lib, kuch, tezlik, chidamlilik va koordinatsiya kabi jismoniy ko'nikmalarni yaxshilashga qaratilgan. Har bir mashqning davomiyligi va intensivligi ilmiy asoslangan tarzda tanlangan bo'lib, sportchining individual tayyorgarlik darajasiga moslashtirilishi mumkin. Natijada, dastur nafaqat sport natijalarini yaxshilashga, balki sportchining umumiy sog'lomligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dasturda plyometrik, dinamik va statik mashqlar uyg'unlashtirilgan bo'lib, bu sportchining har tomonlama jismoniy rivojlanishini kafolatlaydi. Ushbu yondashuv sport mashg'ulotlari nazariyasining asosiy tamoyillaridan – uzlusizlik, progressiv yuklanish va spesifiklik talablariga to'liq javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori – 2021-yil 29-apreldagi PQ-5099-soni "Boksnii yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hujjat. <https://lex.uz/docs/-5401223>
2. Xalmuxamedov R. D. Boks: O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2008. – B. 165–171.
3. Xalmuxamedov R. D., Shin V. N., Turdiev F. K., Tajibaev S. S. Boks nazariyasi va uslubiyati: Darslik. – Toshkent: 2016. – B. 290–294.
4. Tajibaev S. S., Abduhamidov R. N., Nadjimov F. F. Boks bo'yicha ta'lim muassasalarida sport to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan o'quv dasturi va metodik tavsiyalar. – Toshkent: 2017. – B. 57–64.
5. Ibragimov M. M. Bokschilarни bo'lajak musobaqalarga umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlar. // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023-yil, №11. – B. 128–130.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
 - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
 - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03** Maxsus pedagogika
 - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07** Ta'limda menejment
 - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00** Tarix fanlari
 - 19.00.00** Psixologiya fanlari
 - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00** Kimyo fanlari
 - 03.00.00** Biologiya fanlari
 - 09.00.00** Falsafa fanlari
 - 10.00.00** Filologiya fanlari
 - 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.